

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

CHINOR KOMPONENTLI O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA IJOBIYLIK, SALBIYLIK SEMASI VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Dilshoda Qobilova Yorqinjon qizi

BuxDU 2-kurs magistranti,

Samsungafn230@gmail.com

Annotatsiya: xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lmish maqollar juda keng ma'no tashiydi. Ushbu maqolada o'simlik nomlarini o'rganuvchi soha – fitonimika va uning leksikasiga mansub “chinor” o'simligi ishtirok etgan o'zbek xalq maqollari tadqiq obyekti sifatida olindi va ularning leksik-semantik xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, ushbu maqollarning lingvomadaniy jihatlari hamda xalq hayotida tutgan o'rni ham kuzatishlar asosida tadqiq etildi. Maqollar tashuvchi ma'no badiiy asarlardan olingan ayrim parchalar hamda variantdosh va sinonimlarini keltirish orqali dalillangan.

Tayanch tushunchalar: semantika, fitonimika, parema, chinor, fitonim, sema, floristik leksika, lingvomadaniyatshunoslik, variantdosh.

Annotation: Proverbs, which are a mirror of the people's spirituality, carry a wide range of meanings. In this article, the field of plant names - phytonymics and Uzbek folk proverbs with the plant “syner” belonging to its lexicon were taken as the object of research and their lexical-semantic features were studied. Linguistic and cultural aspects of these proverbs and their role in the life of the people were also studied based on observations. The meaning of proverbs is proved by citing some fragments from works of art as well as variants and synonyms.

Key words: semantics, phytonymics, parame, chynor, phytonym, sema, floristic lexicon, linguistic and cultural studies, variant.

Har bir xalqning milliy, ma'naviy boyligi hisoblangan maqollar qamrov doirasi va mavzu ko'lamini jihatdan nihoyatda boy va xilma-xildir. Shu sababdan ham ularni juda keng aspektda tadqiq etish talab etiladi. Zero, maqol bo'yicha lingvistik tadqiqotlar olib borgan professor B.M.Jo'rayeva o'zining “O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari” deb nomlangan doktorlik ishida maqollar shakllanishi uchun asos bo'luvchi ikki asosiy: intralingvistik va ekstralingvistik omillarni sanab o'tar ekan, ekstralingvistik tamoyil ostida hosil bo'luvchi “O'simlik nomlari asosida shakllangan maqollar”ni alohida bob sifatida o'rganadi. Xususan, unda o'simlik nomlari asosida shakllangan maqollar dastlab yirik uchta guruhga: 1) daraxt nomlari asosida shakllangan maqollar; 2) buta nomlari asosida shakllangan maqollar va 3) o't nomlari asosida shakllangan maqollarga bo'linadi¹. Har bir tur yana o'z ichki bo'linishlarga ega bo'lib, ularning har qaysisi haqida tadqiqotda qisqacha izohlar berib o'tiladi. Shuningdek, bugungi kunda professor B.Jo'rayeva va uning shogirdlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy

¹ Б.М.Жўраева. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Диссертация. – Самарқанд, 2019 – 124 б.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

izlanishlarda paremalarning lingvokulturologik ahamiyati va ularning xalq madaniyatida tutgan beqiyos o'rnini o'rganish davom etmoqda. Zero, lingvokulturologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda maqol va matallar fanning alohida birliklardan tashkil topgan bir qancha asosiy predmetlari sirasiga kiritiladi:

1. Muqobilsiz leksika va lakunalar.
2. Mifologiyalashtirilgan til birliklari.
3. Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi.
4. Tilning frazeologik fondi.
5. O'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar.
6. Metaforalar va obrazlar.
7. Tillarning stilistik qatlami.
8. Nutqiy muomala.
9. Nutq etiketi”².

Ko'rinib turganidek, tilning paremiologik fondi: maqol va matallar lingvokulturologiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi, ularni keng semantik maydonda tadqiq etish bugungi kun antropotsentrik tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Fitonim komponentli xalq maqollarini lingvokulturologik aspektda tahlil etar ekanmiz, avvalo, o'simlik nomlarini ifodalovchi lug'aviy birliklarga nisbatan lingvistik tadqiqotlarda: o'simlik nomi, o'simliklarni ifodalovchi leksemalar, o'simlik otlari, o'simliklarni atovchi otlar, botanik terminlar, fitonimik leksika, floristik leksika kabi terminlar qo'llanilishini ko'ramiz. Chunonchi, o'simlik nomlarini o'rganish – bevosita insoniyat turmushi, xalq hayoti va madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Chinor floristik leksikaga mansub termin sifatida o'zbek xalqi uchun alohida o'ringa ega bo'lgan fitonim hisoblanadi. O'zbek an'analarda chinor uzoq umr ko'rish, donishmandlik va dovyuraklik timsoli hisoblanadi: bo'ylari chinor – uzun bo'yli, alpqomat kishi haqida; chinordek ulug'– keksa yoshdagi kishilar haqida. Bir so'z bilan aytganda, xalqning har kungi turmush tarzida ishlatiladigan o'simlik va sabzavot nomlanishi xalq tiliga, uning frazeologiyasiga ham ta'sir o'tkazmay qolmagan.³ Zero, qadimdan xalq maqol va matallarida, afsona-yu ertaklarida ushbu o'simlik nomi uchrab kelishi ham bejiz emas. Ayniqsa, o'zbek xalq maqollarida o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanilib, xalqning turmush tarzi, ularning turli ijobiy va salbiy xususiyatlari, fe'l-atvorini yoritishga xizmat qiluvchi

² Sh.Usmanova. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 248.

³ Xolibekova O.K. O'zbek va ingliz tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur tadqiqi. – Samarqand, 2022, –134 b.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

chinor fitonimining xilma-xil semalarni ifodalashini ushbu maqol orqali **ijobiylik semasini** kuzatdik.

Chiroying borida chinoringni top.

Hamroh, umryo 'ldosh, suyanchiqlik xususiyati: chinor – xalqimizda azaldan o'zining baquvvatligi, chidamliligi va eng uzoq umr ko'radigan daraxtlardan biri sifatida abadiylik va qudratli tayanch timsoli sifatida qaraladi. Sharq xalqlarida ayniqsa, oila qurish nihoyatda nozik va mas'uliyatli ish hisoblanib, balog'at yoshiga yetgan yigit va qiz uchun keyingi butun umri mana shu tanlov jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ham bo'yi yetgan qizlarga nisbatan, odatda, nasihat tarzida kattalar tomonidan mazkur maqol aytib kelingan va bu bilan: “Chiroying borida, ya'ni husn-jamolga to'lishgan davringda umr bo'yi senga hamrohlik va suyanchiqlik qiladigan chinakam vafodor yoringni topib ol, vaqtini g'animat bil”, – deyilmoqchi⁴. T.Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidan keltirilgan quyidagi parchada ham ushbu maqolning aynan shu mazmunda qo'llanilganligini ko'ramiz:

“ – Uyalsang-uyalmasang bu barimizning boshimizda bor savdo, menga qara, bugun, bugun bo'lmasa ertaga baribir kelin bo'lasan...”

Kenja mimit qo'llarini cho'za berdi, cho'za berdi. Onasi ko'kragini tag'in og'ziga soldi.

– Joyi chiqib turibdi, xo'p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo'ladigan yigit.

– Men undaychikin odamni bilmayman...

Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. *Chiroying borida chinoringni top!*”⁵

2. Bolalining beli chinor,

Bolasizning beli sinar. Mazkur maqolning varianti: “Bolalining beli tinar, bolasizning beli sinar”.

Zurriyod va kuch-qudrat ramzi: qadim zamonlardan buyon ikki insonning o'zaro oila qurishidan asosiy maqsadi – hayotini mazmunli davom ettirish hamda o'zidan nasl qoldirish hisoblanadi. Muqaddas dinimiz islomda ham oila qurish va farzand ko'rish har bir musulmon uchun sunnat hisoblanadi. Alloh taolo olamdagi barcha narsalarni juft-juft qilib yaratgan. Bu haqida “Qur'oni karim”da alohida oyati karimalar nozil bo'lgan. Jumladan: “Sizlar eslatma olishlaringiz uchun biz har bir narsani juft-juft qilib yaratdik⁶. Shuningdek, hadisi shariflardan birida payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v) aytadilar: “Oila quringlar, chunki men sizlarning

⁴ Xolibekova O.K. O'zbek va ingliz tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur tadqiqi. – Samarqand, 2022, –134 b.

⁵ Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар (қисса), 2008. – Б. 87.

⁶ Mansur Alouddin. “Qur'oni karim” ma'nolari tarjiması, 2007. – 493 b.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ko'pligingiz bilan ummatlarga maqtanaman". Ushbu maqol orqali ham bolasi bor insonlarning yumushlari ular katta bo'lgan sayin ancha yengillashib boradi va farzandlari ularga suyanch, yordamchi bo'lishadi, deyilmoqda. Inson yoshi ulg'ayib, kuchdan qolib borar ekan, agar farzandlari bo'lsa, tom ma'noda uning beli chinor kabi baquvvat bo'ladi va har ishga qodir bo'ladi.

3. *Chinor chirmas, archa qurimas.*

Varianti: "Archa xushbo'yligidan mingga kiradi". *Chidamlilik, umrboqiylik xususiyati*: bu maqol ham o'z, ham majoziy ma'noda qo'llaniladi. Asl ma'noda: chinor daraxti chidamli va uzoq umr ko'rishi, archa esa yil bo'yi yam-yashil ko'rinishda bo'lib, tabiatga o'zgacha chiroy bag'ishlashi bilan boshqa daraxtlardan ajralib turadi. Mutaxassislarning aniqlashicha, archa ko'pgina kasalliklarga shifo bo'lib, ba'zi xalqlar og'zaki ijodida muqaddas totem sifatida ham qaraladi. Xullas, chinor va archa daraxtlari insoniyatga foydasi tegadigan o'simliklardir. Ko'chma ma'noda esa: "Ezgu xulqli, yaxshi insonlar atrofdagilarga doim yaxshilik tilaydilar, imkonlari boricha beminnat yordam qo'lini cho'zadilar. Ana shunday asl insonlar xalqda izzat-hurmat va qadr topadilar", – deyilmoqchi⁷. Ya'ni, ularning yaxshiliklarini xalq hech qachon yoddan chiqarmaydi va bunday asl insonlar umrboqiy yashaydilar degan mazmunni uqib olishimiz mumkin.

"Hayot daraxti"ning o'zbek folkloridagi timsoli chinordir. Chinor uzoq umr ramzi sanaladi. Qadimgi xitoyliklar tut daraxtini "hayot daraxti" sifatida talqin qilganlar. Chinor uzoq umr ko'radigan daraxt bo'lgani uchun uning aynan shu jihati ramziy ma'noda asar nomlanishiga sabab bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Asqad Muxtor romanlaridan birini "Chinor" deya nomlaydi. Lekin asar chinor daraxti haqida emas, balki chinorday uzoq umr ko'rgan 93 yoshli Ochil boboning hayoti haqida: "Bir yili – u vaqtlarda Ochil buva yetmishlardan endi oshgan payt ekan – qishloqning qariyalari *chinorning* yoshini hisoblab, uning mingga kiradigan faslini taxminlab, e'lon qilishibdi. E'tiqodga ko'ra, *chinor* mingga kirgan soati o'zidan-o'zi lov^ullab yonib ketishi kerak ekan". "Chingizxon zamonida chor-atrof tutun ichida qolib, dalalar, qishloqlar, bog'lar lov^ullab yonganida ham, shu chinorning ulkan yashil ko'rki xuddi hozirgiday gurkirab, "Hayot mangudir, hayot tugamaydi!" degandek, asta shov^ullab turavergan ekan"⁸.

Salbiylik semasi:

1. *Chinordek bo'ying bo'lguncha,*

⁷ Xolibekova O.K. O'zbek va ingliz tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur tadqiqi. – Samarqand, 2022, – 134 b.

⁸ Muxtor Asqad. Chinor: roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 576 b.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Tumordek aqling bo'lsin.

Kalafahmlik semasi: dono xalqimizda inson o'z umrini mazmunli va ma'murchilik bilan o'tkazishi uchun, avvalo, o'zini o'rab turgan borliqni bila olishi, yuksak aql va tajriba egasi bo'lishi darkor deya qaraladi va xalqimiz o'zining bir guruh maqollarida aqlni va aql egalarini yuksak darajada madh etadi, ularning hayotdagi yutuqlarini ko'rsatadi, aqlsizlik, johillik, nodonlik, farosatsizlikni qoralaydi. Shu jumladan, ushbu maqolda *chinor* fitonimi salbiy semada insonda kuch va bo'y-bast bo'lsa-yu, unda zarra aql-u farosat bo'lmas ekan, uning bari sa'y-harakatlari bekor degan mazmunni ifodalashga xizmat qilmoqda. Maqolga variantdosh sifatida Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning “Ma'nolar maxzani” kitobida: “Aqldan ortiq boylik yo'q”; “Aql – dunyoning ko'zi”; “Aql – odamning ko'rki”; “Boqqa bulbul yarashar, odamga aql”; “Aql – oltin sandiq, odamiga qarab ochiladi”; “Odamning tizgini – aql”; “Tuyaday bo'ying bo'lguncha, tugmaday o'ying bo'lsin”⁹ kabi jami 56 ta varianti keltiriladi.

2. Har chinordan bir yaproq.

Varianti: “Har supradan bir kulcha”. *Adashganlik, raddiya berish semasi:* mazkur maqol ham bevosita xalq an'ana va urf-odatlari bilan bog'langan bo'lib, asosan, sovchilikka borish va qiz tanlash jarayonlarida qo'llanilgan. Ma'lumki, yangi hayot ostonasida bo'lgan insonlarning elchilari sifatida sovchilar kelinlikka talabgor qizning uyiga borishadi va uning ota-onasidan rozi-rizolik so'rashadi. Sovchilikka aksariyat hollarda yoshi kattalardan ko'pni ko'rgan, obro'li, uvali-juvali kishilar jo'natilgan. Agarda bir oiladan bir qiz olgan bo'lsalar-u, u yaxshi, ko'ngildagidek chiqmagan bo'lsa, “og'izlari kuygan” bo'lsa, buning ustiga qudalarga ikkinchi qizlarini ham shu oilaga bermoqchi bo'layotganlarini bevosita yo bilvosita ma'lum qilsalar, yigit tarafdagi qudalar: “Yo'q endi, bir oiladan – bir qiz-da, boshqasini ham bir ko'raylik”, degan ma'noda rad etish ishoratini bildirib, ushbu maqolni qo'llaganlar. Bu yerda *chinor* fitonimi ko'chma ma'noda ma'lum bir oila va uning yaprog'i – shu oilaning farzandi sifatida kelmoqda.

3. Archaga kuching yetibdi, chinorni ham yiqib ko'rchi.

Varianti: “Yomonning kuchi yapaloqqa yetibdi”, “Yomonning bir qiligi ortiq”. *Behuda chiranish va yomon xulqlilik semasi:* hayot ne'mati insonlarga berilgandan buyon yaxshilik va yomonlik orasidagi kurash davom etib keladi va azaldan xalq donolari ezgulik g'alaba qozonishi uchun kelajak avlodga ma'naviy xazina qoldirib kelmoqdalar. Dunyoda birovlarining muvaffaqiyatini ko'ra

⁹ Шوماқсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. — 448 б

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

olmaydigan, o'zgalarga faqat yomonlik qilish payida bo'ladigan insonlar toifasi mavjud bo'lib, ular atrofdagi barchani xuddi o'zlaridek gumon qiladilar. Mana shunday badaxloq kishilarga nisbatan qo'llanilgan yuqoridagi maqol ham majoziy ma'noda o'zidan kuchsizlarga zulm ko'rsatuvchi insonlarga qarata aytilgan va nochorlarga kuching yetibdimi, qani, o'zingdan kuchlilarga ham yomonlik qilib ko'rchi, degan mazmun ifodalanadi. Bu yerda *chinor* leksemasini ikki xil ma'noda – kuch-qudratli, badavlat insonlar yoki yomonlikni ikki hissa orttirib bajaruvchi juda badxulq kishilar ramzi sifatida kelganligini kuzatishimiz mumkin, maqol orqali xalq donolari ba'zi yomon axloqli kishilarni insofga chaqirish va ularni birovlariga ozor berishdan qaytarishni ko'zlagan.

Demak, chinor fitonimining bevosita xalq turmushida nechog'lik ahamiyatli ekanligini yuqoridagi maqollar tahlili misolida kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, chinor daraxti o'zining shifobaxshlik xususiyati bilan xalq tabobatida ham keng foydalaniladi. Masalan, yavor yoki oq chinor – baland daraxt bo'lib, qobig'i va sharbati ko'pincha dorivor maqsadlarda ishlatiladi va bu o'simlik sharbatidan har xil damlamalar tayyorlanadi. Shuningdek, chinor po'stlog'i, uning barglaridan foydalanish an'anaviy tibbiyotga qiziquvchilar orasida juda mashhur bo'lib, oq chinor quyidagi maqsadlarda ishlatiladi: 1) stress va zo'riqishni bartaraf etish; 2) haroratni pasaytirish; 3) sovuq va vitamin yetishmasligidan qutulish; 4) ichak muammolarida; 5) yaralarni davolash va ularni yuvishda¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek madaniyatida ijobiy va salbiy semani anglatgan yuqoridagi birliklar boshqa xalqlar madaniyatida faqat ijobiylik yo salbiylik, yoki lakuna sifatida umuman yo'q bo'lgan birliklar sirasida tadqiq etilishi ham mumkin. Albatta, kelgusidagi tadqiqotlar uchun bu muhim masala bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Adabiyotlar:

1. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Диссертация. – Самарқанд, 2019. – 124 б.
2. Mansur Alouddin. “Qur’oni karim” ma’nolari tarjiması. 2007. – 493 b.
3. Мурод Тоғай. Ойдинда юрган одамлар (кисса). www.ziyouz.com. 2008. – 87 б.
4. Muxtor Asqad. Chinor: Roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 576 b.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – 248 b.
6. Xolibekova O.K. O'zbek va ingliz tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur tadqiqi. – Samarqand, 2022. – 134 b.

¹⁰ <https://uz.healthy-food-near-me.com/maple-tree-description/>

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

7. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.
8. https://tsuull.uz/sites/default/files/el.zhurn_.uza._2023.may_.pdf
9. <https://uz.healthy-food-near-me.com/maple-tree-description/>